

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA MARKAZI**

**MAGISTRANTLARNING ILMIY-PEDAGOGIK ISHI,**  
**ILMIY-TADQIQOT VA MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI**  
**TAYYORLASH DASTURLARI**  
**VA BAHOLASH MEZONLARI**

**2024/2025- 2025/2026 O‘QUV YILLARI UCHUN**

**SAMARQAND – 2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA MARKAZI

«TASDIQLAYMAN»

SamDU ilmiy ishlar va  
Innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
  
X.A.Xushvaqtov

2024 y.

MAGISTRANTLARNING ILMIY-PEDAGOGIK ISHI,  
ILMIY-TADQIQOT VA MAGISTRLIK  
DISSERTATSIYASINI TAYYORLASH DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONLARI

2024/2025- 2025/2026 O'QUV YILLARI UCHUN

SAMARQAND – 2024

Mazkur dasturda Samarqand davlat universitetida mavjud 1 va 2 bosqich magistratura mutaxassisliklarida o‘tkaziladigan ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyati mazmuni, o‘tkazish tartibi va ularni baholash tizimi yoritilgan.

**Tuzuvchi:**

N.N.Nizamova - Magistratura markazi boshlig’i,

Mazkur dastur SamDU o‘quv-uslubiy Kengashining 2024 yil 24 avgustda o‘tkazilgan 1-sonli majlisida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan.

## KIRISH

Mazkur dasturda magistrantlarining ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyati mazmuni, o‘tkazish tartibi va ularni baholash tizimiga oid masalalar yoritilgan. Ushbu dastur Samarqand davlat universitetida ta’lim olayotgan magistrantlarga va ularning ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiyasiga, ilmiy pedagogik ishiga rahbarlik qiladigan professor-o‘qituvchilarga, mutaxassis tayyorlovchi kafedra mudirlariga mo‘ljallangan.

Samarqand davlat universitetida magistrantlarning ilmiy-pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishning dasturi O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagি 36-son qarori bilan tasdiqlangan Magistratura to‘g‘risida NIZOM, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagи 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimi nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi NIZOMga muvofiq tashkil etiladi va Samarqand davlat universiteti kengashining 2023 yil 26 avgustdagи 1-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Samarqand davlat universitetida talabalar bilimi nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari” a s o s i d a baholanadi.

## ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT

### 1.1. Ilmiy pedagogik faoliyatning mazmuni

Ilmiy-pedagogik faoliyat magistratura o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisi sifatida tayyorlanayotgan magistrantlarning egallagan ilmiy-nazariy bilimlarini bevosita amaliyotga tadbiq etish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalar bilimi baholash borasida xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, oliy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini ta’minlash borasidagi faoliyat turlari bilan amaliy tanishish va ilmiy-pedagogik ishning maqsadini belgilab beradi.

Ilmiy pedagogik ishni amalga oshirishning *maqsadi* - ilmiy-pedagogik amaliyot davrida magistrantlar oliy ta’lim muassasida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishning mazmuni, me’yoriy-huquqiy asoslari va tartibini o‘rganadilar va magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga oid ilmiy izlanishlari doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazadilar hamda olingan natijalarini matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlaydi, xulosalar shakllantiradilar.

## **1.2. Ilmiy-pedagogik faoliyat davomida magistrant tomonidan bajariladigan vazifalar**

Ilmiy-pedagogik ishni bajarish davomida magistrant o‘zining bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy-pedagogik mahoratga ega bo‘lishi uchun ilmiy-pedagogik rahbar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishi zarur. Magistrant o‘z mutaxassisligi to‘g‘risida dastlabki tasavvurga va tushunchalarga ega bo‘lishi, tanlagan mutaxassislikka qo‘yiladigan yangi talablar asosida kasbiy ko‘nikmalarga, ta’lim tizimi va jarayonini tashkil etilishi va olib borilishi haqida tushunchalarga ega bo‘lishi ham shart. Magistrantning zamonaviy ilmiy-pedagogik talablar bilan tanishishdan maqsad uni kelgusida mutaxassis sifatida talabalarga kafedra fanlari bo‘yicha amaliy bilimlar berishga tayyorlashdan iborat.

Ilmiy-pedagogik ishning maqsadidan kelib chiqqan holda magistrantdan quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- kafedraning yetakchi professor o‘qituvchilarining o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishi (kafedra va ilmiy rahbar qarori bilan);
- ilmiy rahbar yoki yetakchi professor o‘qituvchilar ishtirokida akademik guruhlarda mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- masofaviy ta’lim platformalari va tizimlarini o‘rganish va ishslash;
- belgilangan o‘quv fani bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, o‘quv uslubiy majmualarni tayyorlashda ishtirok etish;
- bakalavriat talabalari bilan o‘quv, mustaqil ishlar va tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish;
- pedagogik mahoratni oshirish maqsadida nazariy bilimlarga ega bo‘lish;
- pedagogik kasbga bo‘lgan qiziqishni oshirish, pedagogik kasbga xos ilmiy tushunchalarni o‘rganish va pedagogik izlanish g‘oyalarini shakllantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- ixtisoslik fanlari bo‘yicha turli mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha malaka orttirish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘rganish va qo‘llash, ular asosida ma’ruza matnlari va mashg‘ulotlar o‘tkazish rejasini tuzish;
- talabalar mustaqil ta’limning tashkiliy va o‘quv uslubiy ta’motini o‘rganish, mustaqil bilim olish uchun uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish;
- tarbiyaviy ishlarni olib borishni o‘rganish, va tashkil etish;
- ma’ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash usullarini o‘rganish, ishchi dastur va taqvim rejalarini tuzishni va shu kabi ishlarni o‘rganishi zarur.

### **Ilmiy-pedagogik faoliyati natijalari bo‘yicha magistrant:**

- innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, o‘quv-

tarbiyaviy jarayonni faollashtirish uslublarini, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini baholashning xalqaro standartlari va ilg’or metodlarini amaliy o‘zlashtirishi;

- mustaqil ta’limning tashkiliy va o‘quv – uslubiy ta’minoti, masofadan o‘qitish texnologiyalarini;
- fanlar bo‘yicha o‘quv-me’yoriy hujjatlarni (o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, fan dasturi, ishchi fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua, kalendar ish reja) larni ishlab chiqish, o‘quv adabiyotlarini (darslik va o‘quv qo’llanma, uslubiy yo‘riqnomalarini yaratish asoslarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- oliy ta’lim muassasalarida dars mashg’ulotlarining (ma’ruza, amaliy, laboratoriya, seminar) kabi an’anaviy va noan’anaviy (innovatsion) shakllarini o‘tkazish, ma’ruza matnlari va mashg’ulotlar o‘tkazish rejalarini (texnologik xaritalari)ni tuzish;
- talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari, kompetensiyalarini nazorat qilishning tashkiliy va uslubiy ta’minotini ishlab chiqish;
- oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarning tashkiliy va uslubiy ta’minotini yaratish bo‘yicha **tajribaga ega bo‘lishi kerak**.

Ilmiy-pedagogik ish, odatda, oliy ta’lim muassasaning mutaxassis tayyorlovchi kafedralarida o‘tkaziladi. Magistrantlar ilmiy-pedagogik ish davrida o‘zlarining magistrlik dissertatsiyasi mavzusi doirasida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishlari va olingan natijalar asosida magistrlik dissertatsiyalarini mazmunan boyitishlari ham nazarda tutilgan. Ilmiy pedagogik ish o‘tkazish davomida magistrantlarga bir qator vazifalar qo‘yiladi va ularning ilmiy pedagogik ishi rahbarlari va kafedra mudirlari tomonidan bevosita nazorat qilinadi hamda baholanadi.

Magistrant tomonidan kafedrada olib boriladigan ishlar, tadbirlar, o‘tkaziladigan ma’ruzalar, amaliy mashg’ulotlar va mustaqil ishlarni olib borish tartibi, qaysi fandan, qanday mavzularda bo‘lishi kafedra mudiri va ilmiy pedagogik ish rahbari tomonidan aniqlanadi. Magistrantning Shaxsiy kalendar ish rejasini “Ilmiy-pedagogik ish rejasi” jadvalida bajariladigan ish turlari, ajratilgan soatlar, rejorashtirilgan muddatlari to‘ldiriladi va kafedra qarori bilan tasdiqlanadi.

Kafedra qarori bilan namunaviy rejadagi ishlarni kafedra uchun lozim bo‘lgan va mutaxassislik xususiyatidan kelib chiqib, rejada keltirilmagan ishlar bilan almashtirish mumkin. Bu albatta, aniqlashtirilgan kalendar ish rejada o‘z aksini topishi kerak.

Magistrant har oyda kafedra majlisida reja bo‘yicha bajarilgan ishlarning hisobotini beradi. Hisobot bo‘yicha kafedra yig’ilishi magistrant tomonidan “**reja bajarilgan**” yoki “**reja bajarilmagan**” mazmunidagi qaror qabul qiladi.

Semestr oxirida magistrant oylik hisobotlar asosida semestr bo'yicha yakuniy ilmiy-pedagogik ishi bo'yicha hisobotni tayyorlaydi va kafedraga topshiradi. Kafedra mudiri, ilmiy pedagogik ishi rahbari va kafedra a'zolari magistrantning hisoboti bo'yicha kafedra qarori va ilmiy pedagogik ishi rahbarning tavsiyasini e'tiborga olgan holda **ilmiy-pedagogik ish qaydnomasiga magistrantning bahosini rasmiylashtiradi**. Qoniqarsiz baholangan magistrant akademik qarzdor hisoblanadi.

## **II. ILMIY- TADQIQOT FAOLIYAT**

### **2.1.Ilmiy tadqiqot ishining maqsad va vazifalari**

Ilmiy tadqiqot ishining (ITI) asosiy maqsadi magistrantlar tomonidan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha ilmiy-amaliy muammolarning zamonaviy holatini tahlil qilishdan iborat.

**Ilmiy-tadqiqot ishining asosiy maqsadi** – Magistrantning ilmiy faoliyatining natijasi hisoblangan magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, fan va ta'lif, texnika va texnologiya, iqtisodiyot sohalaridagi ustuvor va dolzarb masalalarga bag'ishlanib, muayyan bir vazifaning ilmiy asoslangan yechimini topishga, tavsiyalar ishlab chiqishga, statistik metodlar asosida natijalarni tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Har bir talabaga mutaxassislik kafedrasida yaratilgan bazadan mavzular taqdim etiladi. Shunga binoan, har bir talaba kafedrada mavjud mavzular banki asosida hamda kafedraning tavsiyasiga ko'ra ilmiy rahbari bilan kelishgan holda o'ziga magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlaydi.

Ilmiy-tadqiqot ishi ta'lif va ilmiy-tadqiqot muassasalari bazasida, O'zFA tadqiqot institutlarida, ilg'or ishlab-chiqarish korxonalarida o'tkazilishi mumkin bo'lib, ushbu muassasalar mutaxassisliklar bo'yicha magistrlarni tayyorlashda tadqiqotlar maydonchasi sifatida qaraladi. Magistrant talabalarning ilmiy-tadqiqot ishi oliy ta'lif muassasasi, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, akademiya va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, korxona va tashkilotlarning tadqiqot bo'linmalarida, umumta'lif maktablari, maxsus muktab, muktab-internatlar, lisey, kollejlar bazasida o'tkazilishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot ishi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan holda xorijiy davlatlarning ta'lif muassasalari, ilmiy markazlari, korxona va tashkilotlarida ham o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishi magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan materiallarni to'plash va bibliografiyani tuzish uchun talabalarning kutubxonalarda doimiy faoliyat olib borishini nazarda tutadi.

**Ilmiy-tadqiqot ishi:** magistratura ixtisosligi bo‘yicha namunaviy modellar, obyekt va jarayonlarni tadqiq qilish usullarini o‘rganish; tajriba tadqiqotlarining ilmiy texnik ta’minotini o‘rganish; tajriba, tadqiqotlar o‘tkazish; tajriba-tadqiqotlar natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish kabilardan iborat.

“Magistratura to‘g‘risida”gi amaldagi Nizomga ko‘ra ilmiy-tadqiqot ishi ikki bosqichda, ya’ni: ilmiy-tadqiqot ishi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va stajirovkadan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sod Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-sod Qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3775-sod Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi har bir mutaxassislik bo‘yicha tavsiya etilgan mavzular bankidan magistrant tomonidan mustaqil tanlab olinadi. Mavzu tanlash juda ma’suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda magistrantga kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari maslahat beradi.

Mavzu magistrantning asosiy ixtisoslik fani bo‘yicha belgilanishi maqsadga muvofiq. Bunda magistrantning amaliy tajribasi, muammolarni bilishi, pedagogik jarayonlardagi axborotlarni yig’ish, qayta ishlash va tahlil qila olish imkoniyati, chet tilini bilishi, xorijiy hamda respublika ta’lim tizimidagi ilg’or tajribalarni nazarda tutishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining to‘g‘ri tanlanishi uning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta’minalaydi. Magistrantga ilmiy rahbarni biriktirish ham mavzu tanlash jarayonida amalga oshiriladi.

Agarda tavsiya etilayotgan mavzuga ilmiy rahbarlikka bir nechta nomzod ko‘rsatilsa, magistr talaba nafaqat mavzuni, balki ilmiy rahbarni ham mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Magistrlik dissertatsiyalari mavzulari bankini yaratishda mutaxassislik kafedrasi bilan hamkorlik shartnomasi tuzilgan ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari, boshqa oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari jalb etilishi mumkin. Mavzu tanlab olingach, kafedra va fakultet Kengashida muhokama etilib, universitet Kengashiga tasdiqlash uchun tavsiya etiladi. So‘ngra magistrant ilmiy tadqiqot ishi rahbari bilan birgalikda ikki yillik

ilmiy faoliyati bo'yicha shaxsiy ish reja tuzib chiqishi va shu asosda faoliyat yuritishi lozim.

Semestr oxirida yakuniy nazoratlar sessiyasi boshlanishigacha Magistrant rejada ko'rsatilgan har bir ishning bajarilishini tasdiqlaydigan hujjatlar papkasini (foydalanilayotgan ilmiy adabiyotlar ro'yxati, internet manzillari ruyxati, ishlab chiqilgan algoritmlar, metodlar, dasturiy yechimlar, eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltiriladi, dissertatsiyaning rejalashtirilgan bobining bosma varianti, bayonnomalar, xulosalar, taqrizlar) yakuniy ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti bilan birga tayyorlaydi va kafedraga topshiradi. Yakuniy nazoratlar sessiyasi davomida magistrantning yakuniy hisoboti bo'yicha kafedra qarori va ilmiy rahbarning tavsiyasini e'tiborga olgan holda **ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash qaydnomasiga magistrantning bahosini rasmiylashtiradi**.

Qoniqarsiz baholangan magistrant akademik qarzdor hisoblanadi. Shaxsiy kalendar ish rejasining tegishli bandlarini qaytadan bajarib, belgilangan muddatlarda tuzatilgan hisobot taqdim etadi. Bu hisobot ham yuqoridagi ishchi guruh tomonidan qaytadan ko'rib chiqiladi va baholanadi. Baho ikkinchi qaydnomaga rasmiylashtiriladi, ikkinchi qaydnomada ham qoniqarsiz baholangan magistrantning ilmiy-tadqiqot ishlari kafedra mudiri tomonidan tuzilgan maxsus komissiya ishtirokida ko'rib chiqiladi va tegishli xulosalar beriladi.

## **2.2. Ilmiy-tadqiqot faoliyati mazmuni Ilmiy faoliyatning I bosqichi (1- semestr)**

Ilmiy faoliyatning 1-bosqichida talaba magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini asoslaydi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot predmeti va obyektini aniqlaydi, mavzuning o'r ganilganlik darajasini aniqlash maqsadida xorijiy va respublika ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etadi, ma'lumotlar to'playdi. Yetarli darajada yig'ilgan materiallar asosida Magistrant dissertatsiya ishining adabiyotlar tahlili qismini faoliyatning I bosqichida rasmiylashtirishi shart.

Talaba ilmiy faoliyatning I bosqichi yuzasidan bajarilgan ishlari natijalari 1-semestr davomida har oyi kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi. Kafedra yig'ilishi qaroriga binoan semestr yakunida har bir magistrantning ilmiy faoliyati I bosqichi natijalari bo'yicha magistratura markazida talabaning ilmiy rahbari, kafedra mudiri ishtirokida barcha bajarilgan ishlari bo'yicha hisoboti eshitilib, attestasiyadan o'tkaziladi. Talaba attestatsiyaga dissertatsiya ishining adabiyotlar

tahlili qismini to‘liq rasmiylashtirgan va boshlang’ich materiallarni attestasiya hay’atiga taqdim etishi lozim.

Dissertatsiyaning adabiyotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik holatiga bag’ishlangan qismi (ikki-uch qismdan iborat bo‘lishi mumkin) 15-20 bet atrofida bo‘lishi tavsiya etiladi.

Talaba ilmiy faoliyatning I bosqichida quyidagilarga alohida e’tibor berishi tavsiya etiladi: ilmiy izlanishlar olib borish, kasbiy muammolarni aniqlash va ularni yechishning umumiyligi usullari va yo’llarini o‘rganish; ilmiy faoliyat davomida olingan axborotlarni qayta ishlash va umumlashtirish; tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash; ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy va psixologik-pedagogik talablarni shakllantirish, qo‘yilgan masalani yechish usullarini ko‘rib chiqish va eng samaralisini aniqlash.

Birinchi bosqich magistrantlari 1-semestrda rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishi davomida magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlashi, ilmiy rahbarni aniqlashi, ilmiy tadqiqot maqsadini belgilab olishi, tadqiqot vazifalarini aniqlashi, ilmiy rahbar bilan birgalikda magistrlik dissertatsiyasi rejasini ishlab chiqishi, tadqiqot predmeti va obyektini aniqlab olishi, kutubxonalardan va internetdan mavzuga doir ma’lumotlarni to‘plashi hamda bajarilgan ishlar yuzasidan yozma hisobot tayyorlashi lozim.

Birinchi bosqich magistrant talabalar 1-semestrga rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishi vaqtida magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini asoslashi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, tadqiqot predmeti, obyektini belgilab olishi, amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, tanlangan mavzuning ishlanganlik darajasini aniqlashi, tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun kerakli materiallarni tayyorlashi kerak hamda kafedra majlisida tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslab, tuzilgan rejani himoya qila olishi lozim.

### **2.3. Ilmiy faoliyatning II bosqichi (2 - semestr)**

Magistrant uchun ilmiy faoliyatning asosiy natijasi magistrlik dissertatsiyasi bo‘lib, u magistrlik dissertatsiyasiga nisbatan Nizomda belgilab qo‘yilgan barcha talablarga to‘liq javob berishi kerak.

Talabaning ilmiy faoliyat yuzasidan bajargan ishlari 2 - semestr davomida har oyda kafedra yig’ilishida muhokama qilinadi. Kafedra yig’ilishi qaroriga binoan har bir Magistrantning semestr yakunida ilmiy faoliyatining natijalari bo‘yicha va bajarilgan ishlari bo‘yicha hisoboti eshitiladi.

Birinchi bosqich magistrantlari 2-semestrda rejalashtirilgan ilmiy-tadqiqot ishi davomida dissertatsiya mavzusining umumnazariy qismi ustida ishlaydi,

mavzuga doir adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlarni tahlil qiladi, ularda keltirilgan ilmiy g'oya va konsepsiyalarga nisbatan o'z yondoshuvini bayon etadi. Tajriba-sinov ishlari dasturini tuzishda, tadqiqot usullarini tanlashda obyekt bo'yicha ma'lumot beradi, tanlangan, ishlab chiqilgan tadqiqot usullarini bayon etadi. Tajriba – sinov ishlarini o'tkazishda foydalilaniladigan didaktik materiallar, algoritmlar, metodlar, dasturiy vositalar, asbob-uskunalar, ko'rgazmali materiallar izohlanadi. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini taxlil qilish, qayta ishslashda to'plangan materiallar, statistik ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni umumlashtirishda, jamlashda qo'llanilgan uslublar beriladi. Tajriba-sinov ishlarining natijalari tahlil qilinadi, qayta ishlanadi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi bo'yicha ilmiy rahbar yordamida ilmiy jurnalga maqola tayyorlanadi. Magistrant dissertatsiya mavzusidan kelib chiqib, zaruriy adabiyotlarni tahlil qiladi va ularning kamida beshtasiga annotasiya tayyorlaydi. Annotasiyada tahlil qilingan monografiya, dissertatsiya, darslik yoki o'quv-uslubiy qo'llanmaning qisqacha mazmuni, dissertant tomonidan ko'tarilgan muammoning yechilganlik darajasi, uning yutuq va kamchiliklari ochib beriladi.

Birinchi kursda magistrant faoliyati ustidan monitoring quyidagi ko'rsatkichlar asosida olib boriladi: Magistrantning kalendar ish rejasi belgilangan muddatlarda o'z vaqtida bajarilishi; bitta ilmiy makola yoki respublika yoki xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada bitta tezis chop etganligi; ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi; mutaxassislik bo'yicha o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi.

#### **2.4. Ilmiy faoliyatning III bosqichi (3- semestr)**

Magistrant ilmiy faoliyatning III bosqichida dastlab belgilangan dastur asosida tajribalar, sinovlar, kuzatuv ishlari, tadqiqotning boshqa turlari aniq rejaga binoan standart yoki nostandart usulda o'tkazilganligi bayon etiladi. Dastlabki natjalarni qayta ishslash standart yoki nostandart usullarda matematik statistika qoidalariga rioya qilinib, kompyuterda bajarilishi tavsiya etiladi.

Olingan natjalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika mezonlari bilan kafolatlanadi. Omillar va natijalar orasidagi bog'lanish qonuniyatları klassik usullardan yoki kompyuter dasturlaridan foydalaniб aniqlanadi va eksperimental (tajriba) natijalari nazariy qonuniyatlar bilan taqqoslanib, tahlil qilinadi. Ular asosida o'r ganilayotgan obyekt, jarayon, mahsulot sifati, uslubiyatlar bo'yicha xulosalar chiqariladi. Natijalar grafik va jadvallar ko'rinishida davlat standartlari talablari va qoidalariga rioya etgan holda rasmiylashtiriladi.

Magistrant ilmiy faoliyatning III bosqichida **dissertatsiya** ishining olingan natijalar va ularning muhokamasiga bag'ishlangan bobida: tadqiqot natijalarini

tahlil qilish; tadqiqot jarayonlarini izohlash; eksperimental qurilma, texnologik sxemalarini taklif etish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Talabaning ilmiy faoliyati III bosqichida amalga oshirilgan ishlari semestr davomida har oyda kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi. Kafedra yig'ilishi qaroriga binoan barcha magistrantlar semestr yakunida ilmiy faoliyatning III bosqichi natijalari bo'yicha magistratura markazi tomonidan talaba, uning ilmiy rahbari (maslahatchi), kafedra mudiri ishtirokida ommaviy tarzda hisoboti eshitilib, attestasiyadan o'tkaziladi.

## **2.5. Ilmiy faoliyatning IV bosqichi (4- semestr)**

Ilmiy faoliyatning IV bosqichida magistrant dissertatsiya ishini to'liq yakunlaydi va belgilangan talab darajasida rasmiylashtiradi.

Magistrant ilmiy faoliyatning IV bosqichida mavzuga oid materiallarni o'rghanish, olingan natijalar hamda orttirgan amaliy ko'nikmalari asosida dissertatsiya ishini to'liq qayta ko'rib chiqadi.

Yozma ravishda ilmiy faoliyat hisobotini topshirmagan magistrant dastlabki himoyaga kiritilmaydi va o'rnatilgan tartibga binoan akademik qarzdor hisoblanadi.

Ikkinci kursda magistrantning faoliyati quyidagi mezonlar asosida monitoring qilinadi:

kalender ish rejasi belgilangan muddatlarda o'z vaqtida bajarilishi;

ikkita ilmiy makola yoki respublika yoki halqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada ikkita tezis chop etganligi;

magistrlik dissertatsiyasi dastlabki himoyadan o'tganligi, agar u monitoring davrida rejalashtirilgan bo'lsa;

ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi;

mutaxassislik buyicha barcha o'quv fanlarini o'zlashtirish darjasи.

Talabaning ilmiy faoliyati IV bosqichda bajarilgan ishlар yuzasidan semestr davomida har oyda kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi. Kafedra yig'ilishi qaroriga binoan har bir magistrant semestr yakunida ilmiy faoliyatning IV bosqichi natijalari bo'yicha magistratura markazi tomonidan talaba, uning ilmiy rahbari (maslahatchi), kafedra mudiri ishtirokida bajarilgan ishlari bo'yicha hisoboti eshitilib, attestatsiyadan o'tkaziladi.

### **III. MAGISTRLIK DISSERTATSIYASINI TAYYORLASH**

#### **3.1. Magistrlik dissertatsiyasi bajarilishini nazorat qilish**

Magistrlik dissertatsiyasi tayyorlanishini nazorat qilib borish ilmiy rahbar, kafedra mudiri va magistratura markazi boshlig'i zimmasiga yuklatiladi.

**Dissertatsiyaning ilmiy rahbari** Magistrantning shaxsiy ish rejasi o'rnatalgan tartibda tasdiqlangandan keyin shaxsiy rejaning o'z vaqtida va sifatli ravishda bajarilib borishini muntazam nazorat qilib boradi. Dissertatsiya mavzusini yoritish uchun zarur bo'lgan ilmiy adabiyotlar, internet ma'lumotlari, konferensiyalar materiallari, ulardan foydalanishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan joylari bo'yicha muntazam ravishda magistrantga maslahatlar berib boradi. Magistrantning dissertatsiya bo'yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlari yuzasidan tayyorlagan hisobotlarini, maqolalarini, konferensiya materiallarini ko'rib chiqadi. Zarur bo'lganda ularni tahrir qiladi. Dissertatsiyaning bosqichma-bosqich sifatli va talab darajasida hamda belgilangan muddatlarda yozib borilishini nazorat qiladi. Magistrantning dissertatsiya yuzasidan olib borayotgan ilmiy izlanishlarini, dissertatsiyaning tayyor bo'lgan qismlarini kafedra majlislarida muhokama qilib borish uchun taqdim etadi.

Dissertatsiya tayyor bo'lganidan keyin unga xulosa tayyorlaydi. Xulosada:

- dissertatsiya mavzusining dolzarbliji;
- mavzuning mutaxassislik bilan bog'liqligi;
- tadqiqot yangiligining asoslanishi;
- magistrantning ilmiy ish olib borishga qobiliyati;
- dissertatsiyada materialarning tahlil qilib, umumlashtirilishi va ular yuzasidan chiqarilgan xulosalarning aniqligi;
- dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyasi talablariga mos kelishi kabi fikrlar aks ettirilishi lozim.

Ilmiy rahbar tomonidan yozilgan dissertatsiya to'g'risidagi xulosada ishning dolzarbliji, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy, ijobiy tomonlari aniq dalillar asosida atroflicha tahlil etilib, dissertatsiyaning tugallanganligi ko'rsatiladi hamda baholanadi.

Dissertatsiya yakunlanganligi to'g'risidagi ilmiy rahbarning xulosasi ilmiy rahbar tomonidan imzolanadi va u ishlayotgan OTM, tarmoq institutlari yoki buyurtmachi tashkilotlarning muhri bilan tasdiqlanadi.

**Ilmiy rahbarning majburiyatlariga** quyidagilar kiradi:

- tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;
- tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistrantga ko'maklashish;

- magistrantning belgilangan kalendar ish rejasi bo‘yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi o‘z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;
- dastlabki himoyagacha magistrlik dissertatsiyasiga xulosa berish.

**Kafedra mudiri** Magistrantning dissertatsiya yuzasidan olib borayotgan ilmiy izlanishlarini, dissertatsiyaning tayyor bo‘lgan boblarini (nazariy va eksperimental qismlarini, xulosa va takliflarini) kafedra majlislarida muhokama qilib, ularning talab darajasida tayyorlanishini ta’minlaydi, magistrantlarga va ularning ilmiy rahbarlariga tegishli ko‘rsatmalar beradi. Magistrantlarining umumiy faoliyati bilan birga, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo‘yicha olib borayotgan ishlarini har yarim yilda kamida bir marta kafedra majlislarida muhokama etadi. Magistrantlarining dissertatsiyani tayyorlash bo‘yicha olib borayotgan ishlari yuzasidan kafedraga har semestr yakunida hisobot beradi.

**Magistratura markazi boshlig’i** ilmiy rahbar, kafedra mudiri va Magistrant tomonidan rejalashtirilgan ishlarni Nizom talablari asosida bajarilishini nazorat qiladi, belgilangan vaqtarda universitet Ilmiy Kengashida hisobot beradi.

**Magistrant** ilmiy rahbar ishtirokida magistrlik dissertatsiyasining bajarilish holati, ilmiy, uslubiy maqolalar tayyorlanishi, o‘tkazilgan ijodiy ishlar ko‘rigi haqida kafedraning oylik majlislarida hisobot berib boradi, semestrlar yakunida esa kafedraga yozma hisobot taqdim etadi.

Magistrant magistrlik dissertatsiyasi mavzusini va ilmiy rahbarni asoslangan holda o‘zgartirishi bo‘yicha taklif kiritishi mumkin.

**Magistrlik dissertatsiyasiga yoziladigan taqrizga qo‘yiladigan talablar.** Dissertasiya to‘g‘risidagi taqrizchi tomonidan yozilgan taqrizda ishning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy, ijobiy, bahsli- munozarali tomonlari xolisona, aniq dalillar asosida atroflicha tahlil etilib, dissertatsiyaning tugallanganligi ko‘rsatilib, hamda baholab borilishi lozim.

Taqriz dastlabki himoyadan kamida **3 kun** oldin taqdim etilishi lozim. Magistrant tomonidan kasb odob-axloqi qoidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, yolg’on iqtiboslar keltirish va boshqalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko‘rsatishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, Magistrant tomonidan kasb odob-axloqi qoidalari (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, yolg’on iqtibos keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda taqrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga qo‘yish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida xulosa beradi.

Dissertatsiya to‘g‘risidagi taqriz taqrizchi tomonidan imzolanadi va u ishlayotgan OTM, tarmoq institutlari yoki buyurtmachi tashkilotlarning muhri bilan tasdiqlanadi.

### **3.2. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar**

Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:

titul varaq;

ikki tilda (o‘qitish tili va ingliz tilida) magistrlik dissertatsiyasining qisqacha annotasiyasi;

mundarija;

kirish;

asosiy qism;

xulosa;

adabiyotlar ro‘yxati;

ilovalar (mavjud bo‘lsa).

**Kirish** quyidagilarni qisqacha o‘z ichiga olishi lozim: magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi; tadqiqot obyekti va predmeti; tadqiqot maqsadi va vazifalari; ilmiy yangiligi; tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari; tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili); tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi; tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati; ish tuzilmasining tavsifi.

Magistrlik dissertatsiyasining **asosiy qismi** kamida uch bobdan iborat bo‘lib, boblar hajm jihatidan o‘zaro mutanosib bo‘lishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

tadqiqot mavzusiga taalluqli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;

tadqiqot metodikasi va ishning amaliy qismi bayoni;

tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko‘rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni.

Magistrlik dissertatsiyasining **xulosa** qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo‘yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa qismi 4 sahifadan oshmasligi kerak. Dissertatsiya ishining har bir bobi alohida xulosa va takliflar bilan yakunlanadi, lekin uning asosiylari ishning umumiyl «xulosa» markazida jamlanadi. Dissertatsiya ishining xulosa qismida tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalar va aniq takliflar, shu jumladan, dissertatsiya ishini bajarish davrida magistrantning

shaxsan erishgan natijalari ham mujassamlashtiriladi. Bunda dissertatsiya ishining «Olingen natijalar va ularning muhokamasi» bobidagi asoslangan ilmiy yangilik va yutuqlar aniq va ravshan yoritilishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiylajmiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim. Dissertatsiya ishining ilovasida magistrant tomonidan bajarilgan ilmiy–tadqiqot ishlarining dastlabki, boshlang’ich ma’lumotlar, dissertatsiya ishining ayrim qismlari uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmali chizma, sxema, jadval va rasmlar keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistrant kasb odob-axloqi qoidalariга rioya etishi (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg’on sitatalar keltirishga yo‘l qo‘ymaslik) lozim.

Dissertatsiya matni standart varaqda yozilgan bo‘lib, unda quyidagi qoidalarga rioya etilgan bo‘lishi lozim: dissertatsiyasi matnini Microsoft Word matnli redaktorida Times New Roman, 14 shriftda yozilgan; qatorlar oralig’i — 1,5 sm; yuqori va pastki hoshiya 2 sm, satr boshi: chap tomonidan 3 sm, o‘ng tomonidan 2 sm; xatboshilar orasidagi oraliq — 5 yoki 6 belgili. Betning tartib raqami sahifaning osti o‘rtasiga qo‘yiladi.

Magistrlik dissertatsiyasining hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashqari 70 — 80 sahifa bo‘lishi tavsiya etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasi magistrant o‘qigan tilda (kafedra yoki magistratura markazi tavsiyasiga muvofiq chet tilda) tayyorlanadi. Chet tilda tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasiga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima bilan o‘tkaziladi.

Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi fakultet O‘quv-uslubiy kengashining qarori bilan o‘zgartirilishi va ko‘paytirilishi mumkin.

### **3.3. Magistrlik dissertatsiya ishini dastlabki himoyani o‘tkazish tartibi**

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedra tomonidan tuzilgan komissiyada tashkil etiladi. Dastlabki himoyaga boshqa kafedralardan, shuningdek boshqa tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Dastlabki himoyaga qadar magistrant ilmiy rahbar taqriziga, shuningdek dissertatsiya mavzusiga doir kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezisga ega bo‘lishi

kerak. Ilmiy maslahatchi tayinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasiga xulosa olish ham talab etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasi Nizomda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi shart.

Dastlabki himoya tashkil etishiga va o‘tkazilishiga mutaxassislikga ma’sul kafedra mudiri hisoblanadi. Magistrantga ma’ruza uchun 15 minutgacha, savol va javoblarga 10 minutgacha vaqt belgilanadi. Magistrant quyidagi ma’lumotlarni topshiradi:

- 1) magistrlik dissertatsiyani;
- 2) ilmiy rahbar xulosasi;
- 3) dastlabki himoyani taqdimoti;
- 4) magistrlik dissertatsiyasi mavzusiga oid ma’lumotlar yoritilgan kamida 2(ikkita) maqola yoki tezis.

Magistrant ushbu talablarga amal qilishi, berilgan topshiriqqa muvofiq to‘la hajmda ishni bajarish bo‘yicha shaxsan javobgardir.

Dastlabki himoyada magistrlik dissertatsiyasiga ichki va tashqi taqrizchilar tayinlanadi va kafedra qarori bilan rasmiylashtiriladi. Taqrizchilar ilmiy darajali yoki ilmiy unvonli soha mutaxassislari, ilmiy muassasasining xodimlari, boshqa oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari bo‘lishi mumkin.

Dastlabki himoya yakunlari kafedrala yig‘ilishi bayonnomasi “rasmiy himoyaga tavsiya etildi” yoki “rasmiy himoyaga tavsiya etilmadi” tarzidagi xulosa bilan rasmiylashtiriladi. Dastlabki himoya xulosalari rasmiy himoyadan kamida 1 hafta oldin magistratura markaziga taqdim etiladi.

Magistratura markazining boshlig‘i dissertatsiya ishini kafedra qarori, ilmiy rahbar va taqrizchilarning tasdiqlangan taqrizlari bilan rasmiy himoya qilish uchun Davlat attestasiya komissiyasiga kiritadi.

### **3.4 Magistrlik dissertatsiya ishini himoyasini o‘tkazish tartibi va baholash mezoni**

Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug‘i bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi.

Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta’lim muassasasining Davlat yakuniy attestasiya komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Dastlabki himoyada rasmiy himoyaga tavsiya etilgan magistrlik dissertatsiya ishi ilmiy rahbar xulosasi, ichki va tashqi taqrizchilarning taqrizi, kafedra yig‘ilishi bayonnomasi, magistrlik dissertatsiya ishining antiplagiat dasturlaridan

tekshirtirilganligi to‘g‘risida hujjat bilan birgalikda fakultet (institut) YaDA kotibiga topshiriladi. Magistrlik dissertatsiya ishining antiplagiat dasturlaridan tekshirtirilganda originallik darajasi 70%dan kam bo‘lmasligi lozim.

Fakultet (institut) YaDA kotibi ushbu hujjatlar va magistrantlarni himoyaga kiritish to‘g‘risidagi universitet rektorining buyrug‘ini Davlat Attestatsiya Komissiyasiga taqdim etadi.

Dissertasiya ishi himoyasi ilmiy munozara xarakteriga ega bo‘lib, ochiq tarzda o‘ta talabchanlik va qat’iyatlik bilan ilmiy muloqot asosida o‘tkaziladi. Bunda magistrlik dissertatsiyasidagi barcha ilmiy, nazariy-amaliy xulosalar hamda tavsiyalar va takliflar har tomonlama asoslanadi, ishonchhliliq tahlil qilinadi.

YaDAK raisi dissertatsiya ishi himoyasi haqida e’lon qilgandan so‘ng YaDAK kotibi dissertatsiya ishining mavzusi, magistrantning ismi-sharifi, shuningdek, tegishli hujjatlarning mavjudligi hamda magistrantning («O‘quv va ilmiy faoliyati», «Tarjimai holi»), o‘quv rejasini bajarganligi, chop etgan ilmiy va uslubiy maqolalari va boshqa ma’lumotlar haqida qisqacha axborot beradi.

Dissertatsiya ishini bayon qilish uchun so‘z magistrantning o‘ziga beriladi. Magistrant dissertatsiya ishining oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari, ishning dolzarbliji, ikki yil davomida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari, amaliy ahamiyati, umumiy xulosalari haqida qisqacha to‘xtaladi. Magistrant dissertatsiya ishi himoyasi paytida jadval, grafiklar, sxemalardan va kompyuter vositalaridan foydalanishi tavsiya etiladi. Magistrantni taqdimot materiallari bilan bayon qilish vaqt 20 minutdan oshmasligi lozim.

Shundan so‘ng YaDAK a’zolari va boshqa tinglovchilar dissertatsiya ishi bo‘yicha muhokama va ilmiy munozarada qatnashadi. YaDAK a’zolari dissertatsiyaga dahldor bo‘lgan muammolar, tadqiqot usullari bo‘yicha tegishli savollarni og‘zaki tarzda berib tadqiqot jarayoni va bajarilgan ilmiy va amaliy ishlar natijalarini aniqlashlari mumkin. Beriladigan savollar dissertatsiya ishi oldiga qo‘yilgan masalaning mohiyatiga taalluqli bo‘lishi kerak.

Magistrant ma’ruzasidan so‘ng raislik qiluvchi so‘zni dissertatsiya ishiga rasmiy taqrizchiga beradi (taqrizchi uzrli sabab bilan ishtirok etmagan hollarda YaDAK kotibi taqrizchi xulosasini o‘qib eshittiradi). Taqrizda ko‘rsatilgan kamchiliklar, taklif, mulohazalarga o‘z munosabatini bildirish uchun so‘z yana magistrantga beriladi.

Magistrantning ilmiy rahbariga so‘z beriladi. Ilmiy rahbar o‘z nutqida magistrantning bajargan dissertatsiya ishiga, olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlariga va mustaqil tadqiqotchilik faoliyatiga munosabatini bildiradi. Magistrantning ilmiy rahbari Davlat attestasiyasi komissiyasi yig‘ilishida ishtirok eta olmagan hollarda raislik qiluvchi uning dissertatsiya bo‘yicha bergan yozma xulosasini o‘qib eshittiradi.

YaDAK a'zolarining yig'ilishida himoya ko'rib chiqiladi va dissertatsiya ishi baholanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdag'i "Magistratura to'g'risi"dagi Nizomga va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018 yil 9 avgustdag'i 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom, Samarqand davlat universiteti kengashining 2023 yil 26 avgustdag'i 1-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Samarqand davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari" asosida baholanadi.

Magistrlik dissertatsiyasini baholashda magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlangan mavzu dolzarbligini asoslab berilganligi; qo'yilgan masalaning yechish uslublarini ko'rib chiqilishi va ulardan eng samaralisini aniqlanganligi; magistrantning ilmiy (yoki ilmiy-texnik, ilmiy-ijodiy) izlanishlar olib borish darajasi, mavzuga xos muammolarni tanlay olganligi va ularni aniq dalillar asosida tahlil eta olganligi; tadqiqotda olingan ma'lumotlar va natijalarni tasvirlar (chizma, rasm, taqdimot) shaklida mujassamlantira olganligi; samarali muqobil yechimni ilmiy, konstrukturlik, texnologik va texnik-iqtisodiy jihatdan asoslab bergenligi; ilmiy-texnik masala yechimining natijalari bo'yicha xulosalar va takliflarni shakllantirganligi hamda fan va iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida qo'llash imkoniyatlarini aniqlaganligi va boshqa masalalar e'tiborga olinadi.

Komissiya a'zolari magistrantni quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib bera olishi;

magistratura talabasining tadqiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;

foydalilanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;

tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanilganligining asoslanganligi;

olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati;

magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyati;

magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o'zaro mantiqiy bog'liqlikni kuzata bilish malakasi.

Magistrlik dissertatsiya ishi himoyasi 5 baholik tizimda baholanadi:

**"5" ("a'lo") baho** - magistrant o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarlicha nazariy va amaliy bilimlarga ega; tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning

amaliyot bilan bog’liqligini ko‘rsatib bera oladi; mohiyatini to‘liq tushunadi; fikrlarini tushuntirishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi; bajargan dissertatsiya ishi bo‘yicha mustaqil fikr-mulohazalar, qarorlar va xulosalar qiladi; tadqiqot usullari amaliyotda qo‘llanilganligining asoslangan; o‘tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko‘ra bilish qobiliyatiga ega; YaDAK a’zolari savollariga aniq va lo‘nda, dissertatsiyaga va unga oid normativ-huquqiy xujatlarga asoslangan holda javob beradi; magistrlik dissertatsiyasi talab darajasida rasmiylashtirilgan.

**“4” (“yaxshi”) baho** - magistrant o‘z mutaxassisligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega; tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog’liqligini ko‘rsatib bera oladi; mohiyatini tushunadi; fikrlarini tushuntirishda mantiqiy ketma-ketlikka qisman amal qiladi; bajargan dissertatsiya ishi bo‘yicha mustaqil fikr-mulohazalar, qarorlar va xulosalar qiladi; o‘tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko‘ra bilish qibiliyatiga ega; YaDAK a’zolari savollariga javob beradi; magistrlik dissertatsiyasi talab darajasida rasmiylashtirilgan.

**“3” (“qoniqarli”) baho** - magistrant o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ma’lum darajada nazariy bilimlarga ega; tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog’liqligini ko‘rsatib bera oladi; mohiyatini tushunadi; fikrlarini tushuntirishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qilmaydi; bajargan dissertatsiya ishi bo‘yicha mustaqil fikr-mulohazalar, qarorlar va xulosalar qilishda qiynaladi; YaDAK a’zolari savollariga javoblar asoslanmagan; magistrlik dissertatsiyasi talab darajasida rasmiylashtirilgan.

**“2” (“qoniqarsiz”) baho** - magistrant o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetarli amaliy va nazariy bilimlarga ega emas; tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog’liqligini ko‘rsatib bera olmaydi; mohiyatini tushunmaydi; fikrlarini tushuntirishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qilmaydi; bajargan dissertatsiya ishi bo‘yicha mustaqil fikr-mulohazalar, qarorlar va xulosalar qilishda qiynaladi; YaDAK a’zolari savollariga javob bermaydi; magistrlik dissertatsiyasi talab darajasida rasmiylashtirilmagan.

YaDAK a’zolari tarkibidan Sanoq komissiyasi tuziladi. sanoq komissiyasi kamida uch kishidan iborat bo‘ladi, rais va ikkita a’zo. YaDAK a’zolari tomonidan byulletenlarga qo‘yilgan baholar sanoq komissiyasi tomonidan tahlil qilinadi. YaDAK a’zolarining 5 bahoga nisbatan qo‘ygan baholari umumlashtiriladi va o‘rtalari arifmetik qiymati olinadi.

Sanoq komissiyasi raisi tomonidan dissertatsiya ishi himoyasiga qo‘yilgan ballar va baholar e’lon qilinadi (**har bir magistrant uchun sanoq komissiyasi majlis bayonnomasi to‘ldiriladi**) va YaDAK a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan

tasdiqlanadi. Ovozlar soni teng yoki munozara bo‘lgan holda raisning xulosasi hal qiluvchi hisoblanadi.

YaDAK raisi barcha himoyada ishtirok etuvchilarga dissertatsiya ishi himoyasi bo‘yicha qo‘yilgan baholarni e’lon qilib, (**YaDAK majlisi bayonnomasiga ko‘ra**) dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilgan magistrantlarga magistrlik akademik darajasi berilganligini e’lon qiladi va majlis tugaganligini ta’kidlaydi.

Himoyada “qoniqarsiz” baholangan yoki kafedra tomonidan himoyaga tавсиya etilmagan dissertatsiya ishi «**TUGALLANMAGAN**» deb hisoblanadi va magistrant keyingi 3 yil davomida qayta himoya qilish huquqiga ega bo‘ladi.

## **TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».
4. Magistratura to‘g‘risida Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Magistratura to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 2015 yil 2 martdagи 36-son qarori.
5. Magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash bo‘yicha metodik tавsiyanoma: magistraturaning barcha mutaxassisliklari uchun mo‘ljallangan. T: TDPU, 2010. – 60 b.
6. Кузин Ф.А. Магистерская диссертация. Методика написания и правила оформления. - М.: МАМАРМЕН, 1993.
7. Соловьев В.И. Гносеологические и психологические аспекты реферирования // Изд. дело. Книговедение. ЦБНТИ печати, 1971, № 7.
8. Швырев В.С. Научное познание как деятельность.- М., 1984.
9. Аверченков В.И. Основы научного творчества [Электронный ресурс]: учебное пособие/ Аверченков В.И., Малахов Ю.А.— Электрон. текстовые данные.— Брянск: Брянский государственный технический университет, 2012.— 156 с.— Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/7004>.— ЭБС «IPRbooks»
10. Дроздова Г.И. Научно-исследовательская и творческая работа в семестре [Электронный ресурс]: учебное пособие/ Дроздова Г.И.— Электрон. текстовые данные.— Омск: Омский государственный институт сервиса, 2013.— 66 с.— Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/18258>.— ЭБС «IPRbooks»

11. Организация совместной учебно-исследовательской деятельности в открытом информационном пространстве [Электронный ресурс]: коллективная монография/ Н.Н. Божко [и др.].— Электрон. текстовые данные.— Волгоград: Волгоградский государственный социальнопедагогический университет, «Перемена», 2012.— 166 с. — Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/21465>.— ЭБС «IPRbooks» [www.ppf.uni.udm.ru](http://www.ppf.uni.udm.ru)

12. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy veb sayti [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
13. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
14. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### **Bitiruvchilar magistrlik dissertatsiyasi himoyasiga taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati**

1. Talab darajasida rasmiylashtirilgan va tasdiqlangan «Shaxsiy kalendar ish rejasi». Har bir semestr bo‘yicha hisobotlar va asoslovchi hujjatlar papkada kafedra mudiriga topshiriladi.
2. 2015 yilda tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizom asosida rasmiylashtirilgan magistrlik dissertatsiyasi ikki nusxada (chop qilingan, pereplyot qilingan, tasdiqlangan, muhrlangan) elektron varianti bilan.
3. Ilmiy rahbar xulosasi.
4. Ichki taqriz.
5. Tashqi taqriz.
6. Magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyadan o‘tganligi, ichki va tashqi taqrizchilar tayinlanganligi to‘g‘risida kafedra yig‘ilishi qaroridan ko‘chirma.
7. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro‘yxati va ishlarning nusxasi.
8. Magistrlik dissertatsiyasini antiplagiat dasturlaridan tekshirtirilganligi to‘g‘risida hujjat.

## **YaDAK komissiyasi kotibi tayyorlashi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati**

### **Har bir magistrantga:**

1. Ovoz berish byuletteni (YaDAK a’zolari soniga bog’liq holda) tayyorlanadi.
2. Sanoq komissiyasi majlis bayonnomasi.
3. YaDAK yig’ilishining qayd varaqasi.
4. YaDAK bayonnomasi.

### **YaDAK komissiyasi kotibi himoyadan keyin:**

- Magistrlik dissertatsiyasi (bir nusxa, elektron varianti bilan)
- Nashr etilgan ilmiy ishlarni elektron varianti
- YaDA qaydnomasini 1 nusxasi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlarni himoyadan keyin bir hafta ichida alohida papkada jamlab, saqlash uchun magistratura markaziga topshirilishi shart.

**“Тасдиқлайман”**

**СамДУ ректори**

Р.И.Халмурадов

«\_\_\_» 2024 йил

**Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университетида  
2024-2025 ўқув йилида магистратура талабасига раҳбарлик бўйича  
ўқув юкламаларини хисоблаш меъёри ва қоидалари**

| Курс | Семестр | Магистрлик диссертацияси ва илмий-тадқиқот ишига илмий раҳбарлик қилиш | Илмий-педагогик ишига раҳбарлик қилиш* | Илмий Амалиёт (тажриба орттириш)га раҳбарлик қилиш** | Жами |
|------|---------|------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|------------------------------------------------------|------|
| 1    | I       | 25                                                                     | 15                                     | 10                                                   | 50   |
|      | II      | 25                                                                     | 15                                     | 10                                                   | 50   |
| 2    | III     | 25                                                                     | 15                                     | 10                                                   | 50   |
|      | IV      | 25                                                                     |                                        | 25                                                   | 50   |

\* Кафедра магистрантлари сони 1-5 тагача бўлса Илмий-педагогик ишига раҳбарлик қилиши кафедра кесимида битта профессор-ўқитувчига бириткирилади;

\*\* Кафедра магистрантлари сони 1-5 тагача бўлса Илмий стажировкага раҳбарлик қилиши кафедра кесимида битта профессор-ўқитувчига бириткирилади.

\* Кафедра магистрантлари сони 6 ва ундан кўп бўлса, кафедрани бир нечта профессор-ўқитувчиларига бириткирилади. Илмий-педагогик ишига раҳбарлик қилиши: профессор ёки фан доктори 5 нафаргача, фан номзоди ва мутахассис 3 нафаргача магистрантга раҳбарликни амалга ошириши мумкин;

\*\* Кафедра магистрантлари сони 6 ва ундан кўп бўлса, кафедрани бир нечта профессор-ўқитувчиларига бириткирилади. Илмий Амалиёт (тажриба орттириш)га раҳбарлик қилиши: профессор ёки фан доктори 5 нафаргача, фан номзоди ва мутахассис 3 нафаргача магистрантга раҳбарликни амалга ошириши мумкин..;

Илмий ишлар ва инновациялар  
бўйича проректор

Х.А.Хушвақтов

Магистратура маркази  
бошлиғи

Н.Н.Низамова